INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

OLIY TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING XALQARO STANDARTLARI

Normamat Ramazonovich Mallayev

Yuridik fanlar nomzodi, dotsent.

Qayumova Etibor Haydar qizi

Termiz davlat universiteti Advokatlik faoliyati mutaxasisligi tinglovchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro standartlari va ularning ahamiyati ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqot davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hujjatlar, xususan, BMT konvensiyalari va boshqa global tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy yondashuvlar o'rganiladi. Shuningdek, xalqaro standartlarni milliy ta'lim tizimiga implementatsiya qilish masalalari, ularning samaradorligi hamda amaliy natijalari baholanadi. Maqolada shaffoflik, hisobdorlik, akademik halollik va raqamlashtirish kabi omillarning korrupsiyani oldini olishdagi o'rni yoritilib, ilg'or xorijiy tajribalar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, oliy ta'lim, xalqaro standartlar, shaffoflik, hisobdorlik, akademik halollik, raqamlashtirish, konvensiya.

INTERNATIONAL STANDARDS FOR COMBATING CORRUPTION IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Annotation. This article examines the international standards for combating corruption in the higher education system from a scientific and legal perspective. The study analyzes key international legal instruments, particularly United Nations conventions and other global frameworks, that regulate anti-corruption efforts. It also explores the issues of implementing these standards into national education systems, assessing their effectiveness and practical outcomes. The article highlights the role of transparency, accountability, academic integrity, and digitalization in preventing corruption, and provides recommendations based on advanced international practices.

Keywords: corruption, higher education, international standards, transparency, accountability, academic integrity, digitalization, convention.

Korrupsiya zamonaviy jamiyatning global va shu bilan birga qadimiy muammolaridan biri bo'lib, u dunyoning deyarli barcha davlatlarida turli shakllarda uchrab kelmoqda. Mazkur salbiy hodisa faqat huquqiy muammo bo'lib qolmasdan, balki ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sohalarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish har bir davlat uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda ta'lim tizimi eng muhim vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi, chunki aynan ta'lim orqali jamiyatda halollik va adolat tamoyillari shakllanadi. Ta'lim tizimi davlat taraqqiyotining asosiy poydevori bo'lishiga qaramay, ayrim holatlarda ushbu soha ham korrupsiyaviy munosabatlardan xoli emas. Bugungi kunda ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim sohasi korrupsiyaning turli shakllari namoyon bo'layotgan yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilmoqda. Korrupsion sxemalar va usullar tezkor ravishda yangilanib borayotgani esa bu muammoning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Ta'lim sohasida eng keng tarqalgan korrupsiyaviy holatlardan biri sifatida pora olish va berish bilan

bog‘liq holatlar ajralib turadi. Statistik ma’lumotlar ham so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi korrupsiyaga moyil sohalardan biri bo‘lib qolayotganini ko‘rsatmoqda. Mazkur muammoning ildiz sabablarini tahlil qilish shuni anglatadiki, jamiyatda bilim va malakadan ko‘ra diplomning o‘zi ustuvor deb qaralishi korrupsiyani rag‘batlantiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Agar jamiyatda haqiqiy bilim va ko‘nikmalar ustuvor qadriyatga aylansa, korrupsiyaga qarshi kurashishda sezilarli natijalarga erishish mumkin bo‘ladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida muhim tashkiliy va huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan tizimli choralar izchil olib borilmoqda. Davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, jamoatchilik va parlament nazoratini kuchaytirish, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha ham muhim o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi1 farmoni ushbu islohotlarning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Mazkur hujjatning 8-bandiga muvofiq, 2019-yil 1-avgustdan boshlab tajriba tariqasida kapital qurilish va oliy ta’lim sohalarida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish vazifasi belgilangan. Ushbu loyiha oliy ta’lim tizimida korrupsiyani bartaraf etish bo‘yicha muhim huquqiy asoslardan biri sifatida xizmat qilmoqda. “Korrupsiyasiz soha” loyihasi oliy ta’lim muassasalarida qabul jarayonidan boshlab diplom berishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni, shuningdek, o‘qishni ko‘chirish, tiklash va nostrifikatsiya jarayonlarini qamrab oladi. Bu esa tizimda shaffoflikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida korrupsiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘layotgan omillardan biri – bu jarayonda ishtirok etuvchi tomonlarning aniq bo‘lishidir. Ya’ni aksariyat hollarda korrupsiyaviy munosabatlarda professor-o‘qituvchi pora oluvchi, talaba esa pora beruvchi sifatida ishtirok etadi. Ushbu o‘zaro yaqin aloqa esa bunday huquqbuzarliklarning yashirin (latent) qolishiga sabab bo‘ladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida korrupsiyaviy holatlar asosan o‘quv va o‘quv-uslubiy jarayonlarda yuzaga keladi. Talaba o‘qish davomida ko‘plab fanlarni o‘zlashtirishi va har bir fan bo‘yicha baholanishi zarurligi, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarning mavjudligi korrupsiyaviy xavflarning ortishiga sharoit yaratadi. Shu bois, birinchi navbatda o‘quv jarayonini takomillashtirish, ya’ni davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari va fan dasturlarini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish, ortiqcha va takrorlanuvchi fanlarni qisqartirish zarur hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi yuridik ta’lim va fanni rivojlantirishga qaratilgan farmoni asosida muayyan islohotlar amalga oshirildi. Shuningdek, talabalar bilimini baholash jarayonida inson omilini kamaytirish muhim vazifalardan biridir. Bunda baholash jarayonini imkon qadar avtomatlashtirish, anonimlikni ta’minlash va talaba hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi bevosita aloqani cheklash orqali xolislikka erishish mumkin. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalari faoliyatini to‘liq raqamlashtirish, videokuzatuv tizimlarini joriy etish, boshqaruv tizimini optimallashtirish hamda mustaqil nazorat mexanizmlarini rivojlantirish orqali korrupsiyaviy holatlarning oldini olish mumkin. Ta’lim jarayonlarini elektronlashtirish esa shaffoflikni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda yana bir muhim yo‘nalish – kadrlar siyosatini takomillashtirishdir. Xodimlarni ishga qabul qilish jarayonida ochiqlikni

1 https://lex.uz/uz/docs/-4355387

ta’minlash, ularning mehnatini munosib rag‘batlantirish va natijaga asoslangan baholash tizimini joriy etish orqali tizim samaradorligini oshirish mumkin.

Jamiyatda korrupsiya holatlariga sabab bo‘layotgan omillarni aniqlash, ularni ilmiy asosda o‘rganish va oldini olish, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi faol ishtirokini kengaytirish maqsadida ushbu qaror qabul qilindi. Qaror Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi qoidalari va Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirishga hamda 2025-yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig‘ilishida2 belgilangan ustuvor vazifalarni bajarishni ta’minlashga qaratilgan. Oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida markaziy rol o‘ynaydi. Mahalliy va xorijiy universitetlar, ilmiy markazlar va ekspert guruhlari korrupsiyaning turli ko‘rinishlarini, jumladan maishiy korrupsiyani aniqlash va tahlil qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Shu bilan birga ular qo‘shma ilmiy loyihalar va tajriba almashuvini tashkil etadi, ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganadi va amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. Tadqiqot natijalari asosida davlat organlariga ilmiy-uslubiy yordam ko‘rsatiladi, ekspertlar va olimlar faoliyati metodologik jihatdan qo‘llab-quvvatlanadi. Oliy ta’lim muassasalari korrupsiyaga qarshi tadqiqotlarni milliy va xalqaro grantlar orqali moliyalashtiradi, bu esa ilmiy loyihalarni kengaytirish va sifatini oshirish imkonini yaratadi. Universitetlar va ilmiy markazlar nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi, ijtimoiy so‘rovlar va loyihalarni birgalikda amalga oshiradi, fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshiradi. Shu tarzda oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari korrupsiyaga qarshi kurash ishlarining ilmiy asosini yaratishda va natijalarni amaliyotga tatbiq etishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ko‘p qirrali va kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayonda huquqiy asoslarni mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, shaffoflikni ta’minlash hamda jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ustuvor ahamiyatga ega.

Xorijiy amaliyot tahlillari shuni ko‘rsatdiki, bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlardan biri sifatida komplayens nazorat tizimi keng qo‘llaniladi. “Komplayens” (inglizcha compliance – muvofiqlik) tushunchasi qonunda belgilangan talab va qoidalarga muvofiq harakat qilishni anglatadi. Komplayens nazorat esa kompaniyaning o‘z faoliyatini ushbu talablar va qoidalarga muvofiq tashkil etish xizmatidir. Ushbu tizimning dastlabki asoslari 1884-yilda Germaniyada “Baxtsiz hodisalarning oldini olish va sug‘urtalash assotsiatsiyasi” tashkil etilishi bilan bog‘lanadi. Biroq tizim rasmiy ravishda AQShda joriy etilgan. 1906-yilda AQShda oziq-ovqat mahsulotlari va dori vositalarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalarni nazorat qiluvchi federal xizmat (FDA) tashkil etilishi natijasida komplayens tizimi shakllangan. Mamlakat iqtisodiyotida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan kompaniyalar va korporatsiyalar faoliyatida korrupsiyaga qarshi profilaktik choralarni joriy etish zarurati yuzaga kelgan. O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan bugungi kungacha yirik kompaniyalar faoliyatida yuzaga kelgan nizolar, ularning korrupsiyaga qarshi mexanizmlari yetarli darajada samarali emasligini ko‘rsatdi va mavjud tizimni tubdan isloh etish zaruratini keltirib chiqardi. Hozirgi kunda 100 dan ortiq mamlakatlarda kompaniyalarda komplayens nazorat tizimi faoliyat ko‘rsatmoqda. AQSh va Buyuk Britaniyada bu tizimning qonuniy mustahkamlanishi FCPA (1977), Sarbanes-Oxley Act (2002), Dodd-Frank Act (2010) va “Poraxo‘rlik to‘g‘risida”gi 2011-yildagi qonun kabi hujjatlar orqali amalga oshirilgan. Bu

2 https://president.uz/oz/lists/view/7924

qonunlar kompaniyalarni o‘z tarkibida komplayens tizimini joriy etishga majbur qiladi va davlat xizmatchilarining axloq kodeksini qabul qilishga undaydi. O‘zbekiston kontekstida oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari korrupsiyaga qarshi kurashning ilmiy asosini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Universitetlar va ilmiy markazlar korrupsiyaning turli ko‘rinishlarini, jumladan maishiy korrupsiyani o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib boradi, qo‘shma ilmiy loyihalar va tajriba almashuvini tashkil qiladi, ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganadi va amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. Tadqiqot natijalari asosida davlat organlariga ilmiy-uslubiy yordam ko‘rsatiladi, ekspertlar va olimlar faoliyati metodologik jihatdan qo‘llab-quvvatlanadi. Oliy ta’lim muassasalari korrupsiyaga qarshi tadqiqotlarni milliy va xalqaro grantlar orqali moliyalashtiradi, bu esa ilmiy loyihalarni kengaytirish va sifatini oshirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga universitetlar nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, ijtimoiy so‘rovlar va loyihalarni birgalikda amalga oshiradi, fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshiradi. Natijada oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari korrupsiyaga qarshi kurash ishlarining ilmiy asosini yaratishda va natijalarni amaliyotga tatbiq etishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Xorijiy davlatlarda komplayens nazorat tizimining muvaffaqiyatli joriy etilishi va korrupsiyaga qarshi profilaktik choralarning samaradorligi O‘zbekiston oliy ta’limida ham shaffoflikni oshirish va korrupsiyaga qarshi tizimli mexanizmlarni shakllantirishning muhim ilhom manbai sifatida xizmat qilmoqda. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini takomillashtirish jarayoni so‘nggi yillarda sezilarli sur’atlar bilan rivojlanmoqda. 2020-yil 24-yanvarda Prezident Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida korrupsiyaga qarshi kurashda faqat oqibatlar bilan emas, balki uning oldini olishga qaratilgan profilaktik mexanizmlarni kuchaytirish zarurligini alohida ta’kidladi. Bu ta’kid oliy ta’lim muassasalarida ham korrupsiyaga qarshi samarali ichki nazorat tizimlarini, jumladan, komplayens nazorat elementlarini joriy etish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Shuningdek, 2020-yil 11-fevralda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda jamoatchilik nazorati tizimlarini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda barcha davlat organlari, shu jumladan oliy ta’lim muassasalari ham ichki nazorat tizimlarini shakllantirish vazifasini oldilar. Bu qaror oliy ta’lim muassasalarida shaffoflikni ta’minlash, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va korrupsiyaviy xavflarni aniqlash mexanizmlarini joriy etishga xizmat qildi. Amaliyotda bu jarayon qabul jarayonlarini raqamlashtirish, baholash tizimlarini ochiq va shaffof qilish, professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi axloqiy kodekslarni joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalari tomonidan korrupsiyaning sabablari, shakllari va oqibatlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish ishlari ham olib borilmoqda, bu esa komplayens nazorat tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, 2020-yildan boshlab O‘zbekiston oliy ta’limida korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari, xususan, profilaktik va komplayens elementlari, tizimli tarzda joriy etilib, doimiy rivojlanish bosqichiga o‘tdi. Bu tizim kelgusida yanada mustahkamlanishi va xalqaro standartlarga moslashishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 24 yanvar 2020, Toshkent.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11 fevral 2020 yildagi qarori: “Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda jamoatchilik nazorati tizimlari takomillashtiriladi”, Toshkent.

3. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun va normativ-huquqiy hujjatlar (2018–2022).

4. Foreign Corrupt Practices Act, 1977. U.S. Congress. Washington, D.C.

5. Sarbanes-Oxley Act, 2002. U.S. Congress. Washington, D.C.

6. Dodd-Frank Act, 2010. U.S. Congress. Washington, D.C.

7. OECD. Foreign Bribery and Corporate Compliance: Practical Guidance. Paris, 2018.

8. Transparency International. Corruption Perceptions Index 2022. Berlin, 2022.

9. World Bank. Anti-Corruption Measures in Public Sector and Education Systems. Washington, D.C., 2021.